



Bugun Xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining VII chaqiriq, birinchi sessiyasi o'tkazildi



Unda viloyat Hududiy saylov komissiyasi raisi Zebuniso Alimardonovanning joriy yil 27-oktabr kuni bo'lib o'tgan saylov yakunlari to'g'risidagi axboroti tinglandi.

Sessiyada 14-Alpomish saylov okrugidan saylangan deputat Choriyev Abduraim Ravshanovich xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashi raisi etib saylandi.







Shuningdek, sessiyada xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashiga saylangan deputatlarning partiya guruhleri ro'yxatdan o'tkazilib, viloyat Kengashining reglamenti va doimiy komissiyalar to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi.

Maslahatlashuvda Prezidentimiz tomonidan Surxondaryo viloyati hokimi lavozimiga Ulug'bek Qosimov nomzodi ko'rsatilganligi bildirildi. Nomzod bo'yicha partiyalar guruhleri ham o'z fikr-mulohazalarini bildirishdi.

Nomzod deputatlarga viloyatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqboliga mo'ljallangan o'z dasturini taqdim etdi.





O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 122-moddasi hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunning 2-moddasiga muvofiq xalq deputatlari viloyat Kengashining VII chaqiriq birinchi sessiyasi qarori bilan Qosimov Ulug'bek Berdiqobilovich nomzodi Surxondaryo viloyati hokimi lavozimiga bir ovozdan tasdiqlandi.